
“YoShLARGA OID DAVLAT SIYoSATINI AMALGA OSHIRISHDA YoShLAR YeTAKChILARINING O'RNI”



“YoShLARGA OID DAVLAT SIYoSATINI AMALGA OSHIRISHDA YoShLAR YeTAKChILARINING O'RNI”

Ayni damda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi 92-sonli qaroriga muvofiq mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizimning mazmun-mohiyatini ommalashtirish, olimlar va mutaxassislar ishtirokida muhokama qilish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlar yetakchilarining o'rni” mavzusida Respublika Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi bo'lib o'tmoqda.

Onlayn-konferentsiya shaklida bo'lib o'tayotgan mazkur siyosiy tadbirda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar Agentligi So'x tumani bo'limi vakillari, mahallalarda faoliyat boshlagan yoshlar yetakchilari qatnashmoqda.

- Onlayn ilmiy-amaliy konferentsiyada biz - So'x tumani vakillari tuman xalq ta'limi bo'limidan ishtirok etmoqdamiz. Tashkil etilgan onlayn ilmiy-amaliy konferentsiyada Prezident maslahatchisining birinchi o'rinbosari Q. Quronboyev, Oliy Majlis Senati raisi T. Norbayeva, Oliy Majlis qonunchilik Palatasi spikeri N. Ismoilov, O'zbekiston Yoshlar ishlar Agentligi direktori A. Sa'dulleavlar turli mavzularda ma'ro'za qilishdi. Yoshlar yetakchilarining vazifalari va ularning zimamlaridagi kasbiy mas'uliyatlari tushuntirildi, - deydi Yoshlar ishlari Agentligi So'x tumani bo'limi rahbari Isojon Mastonov.

Yoshlar masalalariga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi davom etmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-15 16:39:01